

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**BIOKIMYO VA MOLEKULYAR BIOLOGIYA FANIDAN  
O'QUV DASTURI**

- Bilim sohasi: 500 000 - Tabiiy fanlar, matematika va statistika
- Ta'lif sohasi: 510 000 – Biologik va turdosh fanlar
- Ta'lif yo'nalishi: 60510100-Biologiya

<b>Fan/modul kodi</b>	<b>O'quv yili</b>	<b>Semestr</b>	<b>ECTS- Kreditlar</b>	
<b>BVM13408</b>	<b>2025-2026</b>	<b>3-4</b>	<b>4 - 4</b>	
<b>Fan/modul turi majburiy</b>	<b>Ta'lim tili O'zbek/rus</b>		<b>Haftadagi dars soatlari 4 – 4</b>	
1.	<b>Fan nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	<b>Biokimyo va molekulyar biologiya</b>	120	120	240

### I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – tirik organizmlarning kimyoviy tarkibi, struktura va funksiyalari, yuqori molekulyar birikmalar almashinuvi va bu almashinuv oraliq mahsulotlarining umumiy metabolizmdagi ishtiroki va ahamiyati kabilar haqida talabalarda ko'nikmalarni hosil qilish, hujayra komponentlari, ularning strukturasi va funksiyasi, oqsillar va nuklein kislotalar strukturasi va funksiyasi, genlarning tuzilishi, xromatinning strukturasi, ribosomaning strukturasi va funksiyasi, oqsil biosintezi kabilar haqida talabalarda **ko'nikmalarni hosil qilishdan iborat**.

Fanning vazifasi – organizmning irsiy belgilarini avloddan – avlodga uzatilish mexanizmlarini ko'rsatib berish, molekulyar biologiya fani yutuqlarining turli sohalarga ta'siri va uzviy bog'liq tomonlarini tushuntirish orqali mustahkamlashni talabalarga o'rgatishdan iborat.

### II. Asosiy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

#### II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

**1-mavzu: Biologik kimyo kursining maqsad va vazifalari, metodlari, tarixi**

"Biologik kimyo" fanining predmeti, o'rganish obektlari, fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligi, bo'limlari hamda vazifalariga tavsif. Boshqa biologik fanlar orasida tutgan o'rni va uning eng muhim vazifalariga ta'rif berish.

**2-mavzu: Oqsillarning kimyoviy tarkibi, funksiyasi. Aminokislotalar, ularning fizik-kimyoviy xossalari. Oqsillarning fizik-kimyoviy xossalari**

Oqsillarning elementar tarkibi, funksiyasi. Aminokislotalarning tuzilishi va tarkibida qo'shimcha funksional guruhlar tutishiga qarab klassifikatsiyalanishi haqida tushuncha. Aminokislotalarning fiz-kimyoviy xossalari. Oqsillarning fiz-kimyoviy xossalari.

**3-mavzu: Oqsillarning strukturasi, klassifikatsiyasi**

Oqsillar molekulasi dagi kimyoviy bog'lar. Peptid bog'i, peptid asosi – hamma oqsillarga xos bo'lgan struktura. Peptidlarning N va C uchi haqida tushuncha. Oqsillarning birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va to'rtlamchi

strukturasi. Oqsillarning klassifikatsiyasi. Tabiiy peptidlar.

#### **4-mavzu: Nuklein kislotalar. Ularning kimyoviy tarkibi**

Nuklein kislotalarning ochilish va o‘rganish tarixi. Nuklein kislotalarning tarkibiga kiruvchi purin va pirimidin azot asoslari, minor azot asoslari. Nuklein kislotalar tarkibiga kiruvchi uglevod komponentlari. D-riboza va 2-D- dezoksiriboza. Nukleozidlarning azot asoslari va uglevod komponentlarining glikozid bog‘lar orqali birikishidan hosil bo‘lishi. Nukleotidlarning tuzilishi. Nukleotidlar tarkibidagi birikmalarning joylashish tartibi. Di va trifosfonukleotidlar haqida tushuncha. DNK va RNK tarkibidagi nukleotidlar. Nukleotidlar funksiyasi.

#### **5-mavzu: DNK va RNKlarning tuzilishi. Ularning strukturasi. Biologik roli va funksiyasi**

Nuklein kislotalar kimyoviy tuzilishiga ko‘ra poliribonukleotidlar – RNK va polidezoksinbonukleotidlar – DNK dan iborat ekanligi haqida tushuncha. Nuklein kislotalar molekulasidagi nukleotidlarning bir-biri bilan fosfat kislota vositasida birikishi, DNKnинг hujayrada joylashishi va biologik funksiyasi. DNKnинг tuzilishi. DNKnинг molekulyar massasi. DNKnинг nukleotid tarkibi. Chargaff qoidasi. DNKnинг birlamchi strukturasi. RNKnинг tuzilishi, turlari va funksiyasi.

#### **6-mavzu: Uglevodlar va ularning tirik organizmdagi ahamiyati**

Uglevodlar o‘simlik va hayvonlar organizmining muhim tarkibiy qismlaridan biri. Uglevodlarning hayotiy jarayonlardagi ahamiyati. Uglevodlar tuzilishi va xususiyatlariga ko‘ra ikkita guruhga: oddiy va murakkab uglevodlarga bo‘linishi haqida tushuncha. Monosaxaridlar va polisaxaridlar. Monosaxaridlarning kimyoviy strukturasiga ko‘ra nomlanishi, fiz-kimyoviy xossalari. Polisaxaridlarning tuzilishi, vakillari va funksiyalari.

#### **7-mavzu: Lipidlar**

Lipidlarning kimyoviy tarkibi, tuzilishi va funksiyasi. Lipidlar klassifikatsiyasi. Triglitseridlar tuzilishi. Yog‘ kislotalari. Yog‘larni xarakterlovchi sifat ko‘rsatkichlari. Murakkab lipidlarning elementar tarkibi. Fosfolipidlarning tuzilishi va xossalari, ularning biologik ahamiyati. Glikolipidlar va sfingolipidlarning tuzilishi va vakillari.

#### **8-mavzu: Fermentlar, ularning tuzilishi. Fermentlarning ta’sir qilish mexanizmi**

Fermentlar – biologik katalizatorlar. Fermentlarni o‘rganish tarixi. Hozirgi davrda fermentlar haqidagi ta’limot va bu borada erishilgan yutuqlar. Fermentlarning oqsil tabiatiga ega ekanligi haqida tushuncha. Fermentlarning kimyoviy tarkibiga ko‘ra bir komponentli va ikki komponentli fermentlar gruppasiga bo‘linishi va ularning tuzilishi. Fermentlarning faol markazlari.

## **9-mavzu: Kofermentlarning tuzilishi va klassifikatsiyasi. Fermentlarning xossalari.**

Kofermentlarning tuzilishi va klassifikatsiyasi. Fermentlarning xossalari: spetsifikligi, termolabilligi, muhit pH ning o'zgaruvchanligiga nisbatan sezuvchanligi, aktivatorlar va ingibitorlar ta'siriga moyilligi. Fermentlarning spetsifikligi: absolyut spetsifiklik, absolyut gruppaviy spetsifiklik, nisbiy gruppaviy spetsifiklik, steriokimyoviy spetsifiklik.

## **10- mavzu: Fermentlar klassifikatsiyasi**

Yangi klassifikatsiyaga asosan fermentlar kataliz qiluvchi reaksiyalar turiga qarab sinflarga bo'linshi va nomeratsiya sistemasi haqida tushuncha.

Oksidoreduktazalarning organizmda bajaradigan funksiyalari. Oksidoreduktazalarga kiruvchi degidrogenazalar, oksidazalar. Transferazalarning funksiyasi. Gidrolazalar, ularning eng muhim vakillari va funksiyalari haqida tushuncha. Izomerazalar va ularning funksiyasi. Liazalar-substratlarning suv ishtirokisiz ma'lum gruppalarga ajralishini katalizlovchi fermentlar ekanligi haqida tushuncha. Ligazalar, ularning funksiyasi, fermentlarning hujayrada joylashishi. Fermentlarning amaliyatda qo'llanilishi.

## **11-mavzu: Biologik faol birikmalar: vitaminlar klassifikatsiyasi va ularning tuzilishi, funksiyasi.**

Vitaminlarning ochilish tarixi. Ularning organizm hayotining normal kechishi uchun zarur moddalar ekanligi. Vitaminlar klassifikatsiyasi va ularning tuzilishi, funksiyasi. Yog'da va suvda eriydigan vitaminlar. Ularning ahamiyati va xarakteristikasi.

## **12-mavzu: Gormonlar. Ularning klassifikatsiyasi va funksiyasi**

Gormonlar – biologik faol moddalar. Gormonlarning moddalar almashinuvidan ahamiyati. Endokrin bez gormonlari. Gormonlar klassifikatsiyasi.

## **13-mavzu: Moddalar almashinuvi haqida umumiyl tushuncha. Lipidlarni almashinuvi**

Moddalar almashinuvi haqida tushuncha. Anabolizm va katabolizm tushunchasi. Organizmda energiya almashinuvi yo'llari. Lipidlarning parchalanishi. Ularning beta va alfa – oksidlanishi. Lipidlarning hosil bo'lishi.

## **14-mavzu: Uglevodlar almashinuvi. Aerob va anaerob parchalanish**

Uglevodlarning hazm bo'lishi. Uglevodlarning oshqozon-ichak yo'lida hazm bo'lishi va so'riliishi. Glikoliz. Glikogenoloz. Uglevodlarning anaerob oksidlanishi, pentozofosfat sikli. Krebs sikli.

### **15-mavzu: Oqsillar almashinuvi**

Oddiy oqsillar almashinuvi. Oqsillarning biologik ahamiyati haqida tushuncha. Oqsillarning hazm bo‘lishi. Oqsillarning parchalanish mahulotlarining so‘rilishi. Aminokislolar almashinuvining umumiy yo‘llari. Aminokislarning dezaminlanishi. Aminokislarning dekarboksillanishi. Ayrim aminokislarning almashinuv reaksiyalari. Oqsillar va aminokislolar biosintezi haqida umumiy tushuncha.

### **16-mavzu: Molekulyar biologiya kursining maqsad va vazifalari, metodlari, tarixi**

“Molekulyar biologiya” fanining predmeti, o‘rganish obektlari, fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligi, bo‘limlari hamda vazifalariga tavsif. Boshqa biologik fanlar orasida tutgan o‘rni va uning eng muhim vazifalariga ta’rif berish. Molekulyar biologiyani o‘rganishda qo‘llaniladigan metodlar: elektron mikroskop, differensial ultratsentrifuga, rentgen struktura analizi, xromatografiya, elektroforez, nishonlangan atomlar va usullarning ahamiyati. Biologiya o‘qituvchilarini tayyorlashda molekulyar biologiya fanini o‘qitilishining ahamiyati.

### **17-mavzu: Oqsillarning strukturalari**

Oqsillar. Oqsillarning aminokislota tarkibi. Peptidlar. Oqsil molekulasingning strukturaviy tuzilishi. Oqsil molekulasingning birlamchi strukturası. Oqsil molekulasingning ikkilamchi strukturası. Domenlar. Oqsil molekulasingning uchlamchi strukturası. Oqsil molekulasingning to‘rtlamchi strukturası. Oqsillar molekulasidegi kimyoviy bog‘lar. Peptid bog‘i, peptid asosi – hamma oqsillarga xos bo‘lgan struktura. Peptidlarning N va C uchi haqida tushuncha. Oqsillarning birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va to‘rtlamchi strukturası. Tabiiy peptidlar.

### **18-mavzu: Nuklein kislotalarning strukturalari**

Nuklein kislotalarning birlamchi strukturası. DNK va RNK biopolimerlarining kimyoviy tarkibi. Nukleozidlar va nukleotidlar. N – glikozid bog‘ haqida tushuncha. Nukleotidlararo bog‘ va shu bog‘ning ahamiyati. Hujayradagi DNK va RNK tarkibidagi nukleotidlararo bog‘ni parchalovchi fermentlar, nukleazalarning ahamiyati. DNKnинг birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi strukturalari, DNK qo‘s sh spiral zanjiri. Utson va Krik modeli haqida tushuncha. Chargaff qoidasi.

### **19-mavzu: RNK molekulasingning struktura va funksiyalari. Informatsion RNK va genetik kod**

RNK makromolekulasingning strukturası. RNK ikkilamchi va uchlamchi strukturaviy tuzilishining umumiy qoidalari. i-RNKning ochilishi. Genetik kod. Biologik kodning kashf etilishi. Tripletlar. Genetik kod lug‘ati. Terminatsiya signali. Genetik kod universaldir. m-RNKning birlamchi strukturası. Initsirlovchi kodon, uning translasiya jarayonidagi ahamiyati.

**20-mavzu: Transport-RNK va aminoatsil t-RNK sintetazalar.** Ribosoma F.Krikning t-RNK haqidagi gipotezasi. t-RNKning izoakseptorlik funksiyasi. Antikodon haqida tushuncha. t-RNKning akseptorlik strukturası. Aminoatsil - t-RNK bilan bog'lanish reaksiyalarining mohiyati. Shu reaksiyalarda ATF ishtirokining ahamiyati. t-RNK aminoatsillanishining spetsifikligi. Ribosoma va uning funksional aktiv subbirliklari.

### **21-mavzu: DNK replikatsiyasi. Prokariot va eukariot organizmlarda replikatsiya**

DNK biosintezi – genlar replikatsiyasi, ya'ni organizm belgilarining yuzaga chiqishi haqida umumiy tushuncha. Matritsali sintez. DNK-polimerazaning funksiyasi. Eukariotlar va bakteriyalarda DNK polimerazaning turlari. Namunaning matritsaga nisbatan antiparallellegi haqida tushuncha. DNK sinezining aniqlishgi va korreksiyasi. Replikatsyaning asosiy prinsiplari. DNK zanjirining initsiatsiyasi. Praymaza funksiyasi haqida tushuncha. Replikatsiya jarayonida DNK qo'sh zanjirining echilishida va bunda xelikazalar hamda SSB-oqsillarining ahamiyati. Replikatsiya ayrisi. Okazaki fragmentlari va DNK-ligaza. Replikon haqida tushuncha. Replikatsyaning boshqarilishi va uning mexanizmi. Eukariotlarda DNK replikatsiyasining o'ziga xosligi.

### **22-mavzu: Telomeralar. DNK reparatsiyasi**

Telomeralar haqida umumiy tushuncha, ularning vazifalari. DNK reparatsiyasi va uning xillari. DNK reparatsiyasi amalga oshiruvchi omillar. DNKdagi kimyoviy o'zgarishlar va o'zgarishlarni tiklovchi hujayradagi maxus sistemalar. DNK mutatsiyalari va ularning xillari, mutagenlar.

### **23-mavzu: DNK rekombinatsiyasi**

DNK rekombinatsiyasi haqida umumiy tushuncha. DNK rekombinatsiyasining amalga oshish mexanizmi.

### **24-mavzu: Transkripsiya.**

DNKdan genetik materialni ko'chirib yozish mexanizmi va uning strukturaviy prinsiplari. Transkripsiya jarayonida ishtirok etadigan RNK-polimeraza fermentlari va ularning funksiyasi haqida tushuncha. DNKning ma'lum joylarida RNK molekulاسining sintezi, ya'ni promotorlar haqida tushuncha. Yopiq va ochiq promotor komplekslari. Transkripton haqida tushuncha. Transkripsiya sikllari: initsiatsiya, elongatsiya va terminatsiya bosqichlari.

### **25-mavzu: I-RNK protsessingi. Teskari transkripsiya**

i-RNK protsesingi va uning bosqichlari. Teskari transkripsiya va uni amalga oshish mexanizmi, bu jarayonda ishtirok etuvchi fermentlar kompleksi.

## **26-mavzu: Translyasiya haqida umumiy tushuncha. Aminokislotalarning aktivlanishi**

Translyasiya haqida umumiy tushuncha. Aminokislotalarning aktivlanish bosqichlari, bu jarayonning energiyaga bog'liq ekanligi va aktivlashgan aminokislotalarning hosil bo'lishi.

## **27-mavzu: Translyatsiya inisiatsiyasi.**

Polipeptid zanjirining initsiatsiyasi. Initsiatsiyalovchi t-RNK. Initsiatsiya jarayonining oqsil faktorlari. Initsiatsiya boshlanishidan oldin ribosomaning holati. Initsiatsiyalovchi aminokislotlani tashuvchi t-RNK bilan m-RNK tarkibidagi komponentlar tripletlarning o'zaro ta'siri. Bu jaryonda GTF va initsiatsiya omili deb ataluvchi oqsillar haqida tushuncha. Initsiatsiyalovchi aminokislota prokariot hujayralarda N-formilmethionin, eukariotlarda – meioninning ishtiroki. Initsiatsiyalovchi fMet -t-RNK faqat P-qismi bilan bog'lanishi.

## **28-mavzu: Translyasiya elongatsiyasi, terminatsiyasi. Oqsillarning modifikatsiyasi, ko-translyasion buralishi**

Elongatsiya – uzayib boaryotgan polipeptid zanjiriga har bir aminokislota qoldig'ining birikishining uch bosqichi ekanligi haqida tushuncha. Elongatsiya bosqichi uchun kerakli quyidagi komponentlar haqida tushuncha: initsirlovchi kompleks, m-RNKning navbatdagi tripletiga mos keluvchi aminoatsil t-RNK, elongatsiya omillari, kodon va antikodonning o'zaro ta'siri. Birinchi peptid bog'ining hosil bo'lishi va uning energetik reaksiyalari. Peptidil transferazaning funksiyasi va uning ingibitorlari. Traslokatsiya jarayoni. Elongatsiya omillarining ishtiroki. GTFning gidrolizlanishida elongatsiya omillarining ahamiyati. Omillarsiz translokatsiya. Translokatsianing molekulyar mexanizmi va energetikasi. Elongatsianing boshqarilishi. Terminatsiya kodonlari. Terminatsianing oqsil faktorlari. Polipeptid zanjirining ribosomadan ajralib chiqishi. Terminatsiya omillarining funksiyasi va GTFning ahamiyati. Oqsillarning buralishida ribosomaning ahamiyati. N-uch va C-uchlar modifikatsiyasi. Qo'shimcha signalli polipeptid va ularni peptidaza fermentlari yordamida uzelishi. Qo'shimcha prostetik guruhlarning birikishi. Disulfid bog'larning hosil bo'lishi. Yangi sintezlangan oqsilning kerakli joyga yuborilishi. Oqsil sintezining ingibitorlari.

## **29-mavzu: Oqsil genom kasalliklari**

Oqsil va aminokislolar almashinushi buzilishi natijasida kelib chiqadigan kasalliklar

### 30-mavzu : Hujayraning rejalarshirilgan o'limi. Apoptoz.

**Apoptoz** - bu tartibli programmamashtirilgan hujayra o'limining bir turi. Apoptoz natijasida hujayraning apoptotik tanachalarga bo'linib ketishi. Apoptozning vujudga kelish yo'llari haqida tushincha.

#### III. Laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va taviyalar

Laboratoriya mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Laboratoriya mashg'ulotlari texnikasi bilan tanishtirish.
  2. Oqsillar va aminokislotalarga xos rangli reaksiyalar.
  3. Oqsillarning fizik-kimyoviy xossalari. Oqsillarni cho'ktirish reaksiyalar.
  4. Oqsillarni izoelektrik nuqtasini aniqlash.
  5. Nukleoproteinlarni ajratish va gidrolizlash. Gidrolizat analizi.
  6. Uglevodlar. Monosaxarid va disaxardlarning qaytaruvchanlik xossalari.
  7. Polisaxaridlar. Kraxmalning yod bilan reaksiyasi.
  8. Lipidlар. Lipidlarning kislota sonini aniqlash. Lipidlarning yod sonini aniqlash.
  9. Fermentlar. Amilazaning kraxmalga ta'siri.
  10. Fermentlar o'ziga xosligi. Fermentlarning termolabilligi.
  11. Fermentlar faolligiga pH muhit ta'siri. Fermentlar faolligiga aktivator va ingibitorlar ta'siri
  12. Vitaminlar. Vitamin C ning miqdorini aniqlash.
  13. Oshqozon osti bezi insulinni sifat reaksiyalar.
  14. Texnika havfsizligi qoidalari bilan tanishish va molekulyar biologiyaning metodlari.
  15. Molekulyar biologiyada qo'llanidigan asbob va uskunalar bilan tanishish.
  16. Hayvonlar to'qimasidan gomogenat tayyorlash.
  17. Hayvonlar to'qimasidan mitokondriyalarni ajratish.
  18. O'simliklar to'qimasidan gomogenat tayyorlash.
  19. Oqsil miqdorini biuret metodi bilan aniqlash.
  20. Biologik ob'ektlarda fermentlar miqdorini aniqlash.
  21. Hayvon to'qimasidan DNKn ni ajratish.
  22. O'simlik to'qimasidan DNK ni ajratish.
  23. DNK ning sifat reaksiyasi
  24. Hayvon to'qimasidagi nuklein kislotalarning umumiy miqdorini spektrofotometrik usul bilan o'rGANISH.
  25. Masala va mashqlar echish.
  26. Masala va mashqlar echish
- Laboratoriya mashg'ulotlari zarur jihozlar bilan jihozlangan laboratoriya kichik guruhlarda o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib peadgogik texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

#### **IV. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lifni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan vazifalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga jamoaviy va yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, xulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

#### **V. Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Protenogenli aminokislotlar.
2. Polipeptid zanjirlarining alfa va betta strukturasi.
3. Oqsillarning strukturalari.
4. Nuklein kislotalarning tuzilishi
5. Nuklein kislotalarning strukturasi.
6. Minor azot asoslari va ularning ahamiyati
7. Fermentlarning faol markazlari va ularning boshqarilishi.
8. Glyukoza metabolizimi va uningahamiyati.
9. Lipidlarning  $\beta$ -oksidlanishinishi.
10. Organizimda moddalar almashinuvining o'zaro bog'ligi.
11. Hujayra yadroси va irsiy axborotni uzatilish mexanizmi.
12. Ribosomlar, ularning tuzilishi, funksional holatining ahamiyati.
13. DNK mutasiyasi. DNK reparatsiyasi va ularga tashqi muhit omillarining ta'siri.
14. Genom kasalliklari va ulani oldini olish.
15. DNK va RNKning makromolekulyar strukturasi.
16. Teskari transkriptaza.
17. Polimerazalar va ularning fuktsiyalari .
18. DNK rekombinatsiyasi va uning ahamiyati.
19. Telomeralar.
20. Prokariot va eukariot genomi strukturasi.

#### **VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

##### **Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**

- Biokimyo va molekulayr biologiyaning barcha bo'limlari: biopolimerlar – oqsil, nuklein kislotalar, uglevodlar, shuningdek, lipid, ferment, vitamin va gormonlarning strukturasi, funksiyasi va ahamiyati, oqsil biosintezi va unig bosqichlari: initsiatsiya, elongatsiya va terminatsiyasi; DNK replikatsiyasi, DNK rekombinatsiyasi va uning ahamiyati, DNKning reparatsiya turlari, transkripsiya jarayoni haqida ***tasavvurga va bilimga ega bo'lishi;(bilim)***
- Biokimyo va molekulyar bjologiya kursini o'zlashtirgan talaba yuqori molekulyar biopolimerlarning strukturasi, funksiyasi va ahamiyati,

	<p>umumiyl moddalar almashinuvdag'i ishtiroki, nuklein kislotalar va oqsillar almashinuv haqida ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar yangi axborot texnologiyalarini qo'llab, olgan bilimlarini pedagogik va ilmiy faoliyatida qo'llay olish kabi <b>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Biokimyo va molekulayar biologiya fanini o'qitishda ta'lim texnologiyalari, elektron plakatlar, tarqatma materiallar, elektron darsliklar va qo'llanmalar, virtual laboratoriylar, internet ma'lumotlari, lokal tarmoqdag'i turli o'quv, ilmiy bilimni nazorat qilish bo'yicha ma'lumotlar jamlamasidan foydalaniadi. Mustaqil ta'lim, aqliy hujum, vaziyatl masalalarini yechish, disskusiya, rolli o'yinlar, referatlar yozish kabi pedagogik usullar bilan fanning o'qitilishi amalga oshiriladi va o'quvchilarni baholay olish to'g'risida malakalariga ega bo'lishi kabi <b>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak (malaka)</b></li> </ul>
	<b>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b>
4.	<ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruza;</li> <li>• keys-stadi;</li> <li>• induvidial loyihalar;</li> <li>• taqdimotlar qilish;</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish.</li> </ul>
5.	<p style="text-align: center;"><b>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirishi zarur.</p>
6.	<p style="text-align: center;"><b>IX. Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Тўракулов Й.Х. Биохимия./ -Т.: Ўзбекистон, 1995. -480 б. ✓</li> <li>2.P.Mirhamidova.Biologik kimyo.( Darslik)"Bookmany print".Toshkent 2023 . ✓</li> <li>3.Mirxamidova P., Muxamedov G., Babaxanova D.B. Biokimyo (darslik). -Т.: "Universitet", 2020. - 247 б. ✓</li> <li>4.Mirxamidova P., Babaxanova D.B., Muxamedov G. Biokimyo (amaliy mashg'ulotlar)/ -Т.: "Ishonchli hamkor", 2021. -274 б. ✓</li> <li>5.Valixanov M.N., Dolimova S.N., Umarova G.B., Mirxamidova P. Biologik kimyo va molekulayar biologiya (2-qism. Molekulayar biologiya). Toshkent, "Navroz", 2015. -282 б. ✓</li> <li>6.P.Mirxamidova va boshq. Biologik kimyo va molekulayar biologiya (1-qism)./ -Т.: "Navroz", 2018. – 322 б. ✓</li> </ol> <p style="text-align: right;"><i>ЖК</i></p> <p style="text-align: center;"><b>X. Qo'shimcha adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>6. Valixonov M.N. Biokimyo./darslik. –Т.: "Universitet", 2010. -298 б.</li> <li>7. Берёзов Т.Т., Коровкин Б.Ф. Биологическая химия. М.: "Медицина"</li> </ol>

1998.

8. Konichev A.S., Sebastyanova G.A. Molekulyarnaya biologiya. M.: «AKADEMA», 2012.
9. Kolman YA., Rom L.G.«Naglyadnaya bioximiya». – M.: «Mir», 2023.
10. Lenindjer. “Osnovy bioximii”. – M.: «Mir», 2015 .
11. Richard A Harvey., Denise R Ferrier . Biochemistry. Lippincott Williams and Wilkins. China. 2011.
12. Zikiryayev A., Mirhamidova P. “Biokimyo” – T.: “Fan va texnologiya” 2009. O’quv qo’llanma.
13. Zikiryayev A., Mirhamidova P. Biokimyo” T.:“Tafakkur bo’stoni” 2013 (lotin alifbosida) darslik.
14. Альбертс, Д. Брей, К. Хопкин, А. Джонсон, Дж. Льюис, М. Рэфф, К. Робертс, П. Уолтер. Основы молекулярной биологии клетки.-М.: «Лаборатория знаний», 2018.
- 15.P.Mirhamidova,Sh.B.Qurbanova,S.V.Navrozov, M.J.Parpiyeva.Molekulyar biologiya (Laboratoriya mashg’otlari uchun uslubiy qollanma )”Bookmany print ”TOSHKENT 2022.

**Axborot manbalarি:**

1. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
2. [www.cspu.uz](http://www.cspu.uz)
3. [www.urss.ru](http://www.urss.ru).
4. [lib-online.ru](http://lib-online.ru).
5. [www.pereplet.ru](http://www.pereplet.ru).
6. [www.5-ka.ru](http://www.5-ka.ru).
7. [www.cultinfo.ru](http://www.cultinfo.ru).
8. [www.kubnet.ru](http://www.kubnet.ru).
9. [www.Molbiol.edu.ru](http://www.Molbiol.edu.ru)
10. [www.Obi.img.ras.ru](http://www.Obi.img.ras.ru)
11. [www.bookland.ru](http://www.bookland.ru)

7. Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil “29” 08 dagi qarori bilan tasdiqlangan

**Fan/modul uchun ma’sullar:**

**P.Mirxamidova-** CHDPU, “Biologiya” kafedrasi professori, biologiya fanlari doktori

**D.B.Babaxanova** – CHDPU, “Biologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi, b.f.b.f.d.(PhD)

**Taqrizchilar:**

**G.A.Shaxmurova** - Nizomiy nomidagi TDPU, “Zoologiya” kafedrasi professori, biologiya fanlari doktori (turdosh OTM)

**I.V.Safarov** – ChDPU biologiya kafedrasi dotsenti, b.f.f.d. (PhD)